

МУАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хам хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис



МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХҲИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Sayliyeva M. M. Jamiyat va shax rivojlantirishda milliy g'oya tamoyillari va mazmuni	160
Kenjayeva M. Sh. Milliy qadriyat tushunchasining mazmun va mohiyati	167
Xujaev M. I., Esanova K. I. Маҳмудхўжа Бехбудий жадид матуботи етакчиси	175
Axmadaliyeva M. Sh., Madraximov I. B. Milliy uyg'onish davri poetikasida yetakchi g'oya va obrazlar	182

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Imomberdiyev S. S. Matematika darslarida ekologik komponentdan foydalanishning ahamiyati	186
Кунназаров А. Қ. Информатика фанидан мултимедиали электрон ўқув қўлланма яратиш ва фойдаланиш методикаси	192
Tursinboyeva Z. U., Ismoilova Z. T., Abdullayeva D. A. Differensiallarning taqribiy hisoblashlarga tatbig'i	198
Tursinboyeva Z. U., Ismoilova Z. T., Ravshanova R. M. Tarmoqlararo balans munosabatlarining iqtisodiy masalalarga tadbirlari	202
Shomurodov N. A. Taqribiy hisoblashlarda differensial hisob va darajali qatordan foydalanish	207

БАСЛАЎИШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЎРБИЯ

Eshchanova G. O., Durdiyeva M. O. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ijodiy-kreativ faolligini shakllantirish usullari	212
Ozodova B. Raqamli texnologiya-MTT da zamonaviy zaruriyat	217
Eshchanova G. O., Shamuratova S. Q. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga kompetensiyaviy yondashuv	223
Xo'jamberdiyeva Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zaruriyati	230
Eshchanova G. O., Egamberdiyeva M. K. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarida qayta hikoya qilishga o'rgatish orqali nutq, muloqot kompetensiyalarini shakllantirish usullari	236
Nuradilova A. D. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda noan'anaviy dars usulining samarali natijalari	241
Jabborova O. M. Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va didaktikasining diagnostika masalalari	246
Mardonov Sh. Q. Boshlang'ich ta'lim metodikasi va samaradorligi diagnostikasi	254
Eshmanova N. N. Boshlang'ich sinflarda bayon va insho yozish klaster metodikasi mazmuni	262
Qarshiboyeva X. K., Muminov Z. Sh. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirish usullari	269
Jabborova O. M., Abdujalilova M. M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish metodikasi	275
Tashpulatova D. M. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi	279
Жансаитова Ж. Б., Таджикибаев И. У. Бастауыш сынып оқушыларына арналган психологиялык-педагогикалык диагностика	287
Eshmanova N. N., Rahmonova M. Oilada bola tarbiyasida o'zaro munosabatlar tizimi pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillari	293
Tojiboyeva G. R. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda "Rivoj" loyihasiga asoslangan innovatsion maktab imkoniyatlari	299



BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA “RIVOJ” LOYIHASIGA ASOSLANGAN INNOVATSION MAKTAB IMKONIYATLARI

Tojiboyeva G. R.

ChDPU kata o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kasbiy kompetentlik, PTIK, kasbiy moslashuv, dastur, loyiha, “Tayanch maktab”, mualliflik daqiqalari.


Ключевые слова: личностно-ориентированный подход, профессиональная компетентность, PTIK, профессиональная адаптация, программа, проект, «Основная школа», авторские минуты.

Key words: student-centered approach, professional competence, PTIK, professional adaptation, program, project, “Basic School”, author’s minutes.

Bo‘lajak o‘qituvchiga kasbiy moslashishda professional yordam kerak, chunki muvaffaqiyatsizliklarni boshdan kechirish, o‘z qo‘rquvini haddan tashqari oshirib yuborish, mas’uliyatni anglash – bularning barchasi pedagogik mas’uliyatdan qo‘rqib, umidsizlikka va maktabni tark etishga olib kelishi mumkin. Bunda bo‘lajak pedagogni qo‘llab-quvvatlash, unga manzilli yordam ko‘rsatishi zarur.

Ta‘limning amaliy va ijtimoiy jihatlarni birlashtirish orqali ta‘lim jarayonida qator yangi imkoniyatlar hosil bo‘ladi-ki, SYU amalga oshirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratiladi. Bu holda maxsus ta‘lim dasturlari mazmunini loyihalashtirish PTIK tizimi orqali amalga oshiriladi. PTIK – uzluksiz ta‘lim tizimidagi barcha ta‘lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy – metodik tuzilmalarning bir butunligidir[1].

Boshlang‘ich o‘qituvchilar o‘zlarining kasbiy rivojlanish muammolarini hal qilishda tanlash erkinligini, mustaqil ijodkorlik va izlanish imkoniyatlarini afzal ko‘radilar. Shundankelib chiqqan holda, bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi uchun “Rivoj” loyihasiga asoslangan innovatsion maktabni yaratishga qaror qildik. Pedagogik ta‘lim innovatsion klasteri “Maktab-laboratoriya” “Rivoj” loyiha guruhining tajriba-sinov ishlari ishlab chiqildi. PTIK asosida tashkil



1 – Rasm. Hamkorlik

etilgan ushbu maktab Tayanch maktabi bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. (1- rasm):

O‘qituvchining kasbiy rivojlanishi qanchalik muvaffaqiyatli bo‘lsa, uning kasbiy faoliyatda o‘zini o‘zi anglash imkoniyatlari shunchalik keng bo‘ladi.

Biz “Rivoj” maktabida talaba o‘z qirralarini to‘liq ochib berish imkoniyatini beruvchi ta’lim shakllaridan foydalandik: trening, mualliflik daqiqalari, pedagogik vaziyatlar simulyatsiyasi, ijodiy daqiqa, uslubiy ishlanmalar tahlili tarzida olib bordik.

Kasbiy moslashuv ish maqsadlari, vazifalari va usullari bo‘lajak o‘qituvchining muammolari bilan bog‘liq bo‘lsa, yuqori samara beradi. Rivoj maktabida maxsus usullar yordamida pedagogik to‘siqlar aniqlanadi va tashxis qilinadi. Kasbiy tayyorgarlik diagnostikasini amalga oshirish korreksiya talab qiladigan faoliyat sohalarini aniqlashga va o‘z-o‘zini baholashga yordam beradi.

Dasturning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilar uchun kasbga kirish jarayonining eng qulay (optimal) sharoitini yaratishdir:

- bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik qiyinchiliklarini diagnostika qilish va ularni hal qilishda yordam berish;
- BBTO‘ga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish, uslubiy yordam ko‘rsatish;
- BBTO‘ning umumiy va kasbiy madaniyatini oshirish;
- BBTO‘ amaliyyotini tashkil etishda “Tayanch maktab”[2]ning eng yaxshi tajribalaridan foydalanish.

Biz BTTO‘ning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi vazifalarini belgilab oldik:

amaliy (operativ) – kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy muammolarni hal qilish samaradorligini ta’minlaydigan kompetensiyalardan foydalanish;

faol-texnologik – kasbiy ta’lim mazmuniga moslashtirilgan va talabaning mustaqil samarali o‘quv va ilmiy-tadqiqot ishlar samaradorligini ta’minlaydigan yechimlarni ishlab chiqish va qo‘llash;

tarbiyaviy - talabalarning tashkiliy va boshqaruv tajribasini, muloqot madaniyatini, shaxsiy va kasbiy o‘zini-o‘zi takomillashtirish kompetensiyasini izchil rivojlantirish;



tashxxis (diagnostik) - talaba erishgan kompetensiya daraajalari diagnostikasini ta'minlovchi samarali monitoring tizimni ishlab chiqish.

Dasturni amalga oshirish tamoyillari:

- amaliy yo'nalish;
- uzviylik va izchillik;
- samaradorlik;
- ishning turli shakllari va usullarining optimal kombinatsiyasi.

Dasturni amalga oshirish shakllari:

- mahorat darslari;
- ustaaxonalar;
- psixologik treninglar;
- dars va pedagogik vaziyatlarni modelLashtirish;
- rolly o'yinlar;
- interaktiv ma'ruzalar;
- davvra suhbatlari;
- individual maslahaatlashuvlar;
- o'z-o'zini tarrbiyalash (2 – rasm).

Kasbiy to'siqlarni aniqlash usullari:

- muloqot va tashkilotchilik kompetensiyalarini baholash;
- kasbiy kompetentlik komponentlarining rivojlanish darajasini aniqlash;
- BBTO'ning ishini baholash;
- shaxsiy tashvish shkalasi (J. Teylor);
- Tayanch maktab darslariga tashrif buyurish, ularning keyingi muhokamasini o'tkazish;
- BBTO'ning o'quv faoliyati va o'quv motivatsiyasini o'rganish.

Dasturni amalga oshirish natijalarini monitoring qilish va tuzatish algoritmi:

1. Diagnostika materialini tahlil qilish (so'rovnomalar, testlar), individual maslahatlar (talab bo'yicha).

2. Tanlangan metodlar bo'yicha dars davomida qo'llash va uni batafsil tahlil qilish.

3. Guruhda amaliy yoki individual suhbatlar orqali uslubiy yordam ko'rsatish.



rasm 2. Dastur shakllari



4. Talabalarning shakllangan mustaqil ishlash ko'nikmalar darajasini diagnostika qilish orqali o'quv faoliyatini tashkil etish samaradorligini nazorat qilish (dinamikada).

5. Kvartal, yarim yillik va yillik natijalar bo'yicha talabalarning kompetensiyalarni egallash dinamikasini kuzatish.

Dasturni amalga oshirish natijasida talaba quyidagi natijalarga erishadi:

maktab ta'lim jarayoniga moslashuv;

uzluksiz ta'limga ehtiyojning ortishi;

pedagogik tayyorlikdan kasbiy kompetentlikkacha kasbiy o'sish;

ijodiy faoliyat orqali mualliflik uslubining shakllanishi.

Biz dasturda BBTO'ning kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini qondiradigan muhim va eng maqbul ta'lim texnologiyalarini belgilab oldik:

ilmiy-tadqiqot loyiha texnologiyalari;

psixologik-pedagogik treninglar;

pedagogik muloqot;

shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari;

innovatsion AKT.

Metodik ishning barcha xilma-xil shakllari va usullarini faoliyatda o'rganish eng katta samaradorlikni keltirib chiqaradi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda seminarlar, mahorat darslari, pedagogik vaziyatlarni simulyatsiya qilish, rolli va ishbilarmonlik o'yinlari, individual maslahatlar va o'z-o'zini tarbiyalash kabi ta'lim shakllarini tanlash mumkin.

Dastur uch bosqichdan iborat:

1. O'qishning birinchi bosqich maqsadi – talabaning kasbiy moslashuvi.

2. Ikkinchi bosqichning maqsadi – bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish – takomillashuv.

3. Uchinchi bosqich – o'z faoliyatini tahlil qilish usullarini o'zlashtirish va pedagogik faoliyatning individual uslubini shakllantirish – refleksiya.

Birinchi bosqich – professional moslashuv vazifalari:

yosh o'qituvchilarning uslubiy va psixologik qiyinchiliklarini aniqlash;

talabani maktab ishida ishtirok etishi orqali ijodiy izlanishga jalb etish;

kasbiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berish;

pedagogik faoliyatni mustaqil bajarish tajribasini shakllantirish.

1-ma'ruza. Dars tuzish asoslari (dars maqsadi, dars uslubi, o'quvchilarning bilish faoliyati bosqichlari, maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlari).

2-ma'ruza. Zamonaviy o'qituvchi ideal va real siymosi (esse, kasbiy standartlar ramkasi).

3-ma'ruza. Kompetensiya va kompetentlik: tadrijiy yondashuv.



4-ma'ruza. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligi tarkibi va darajalari (kompetentlik matritsasi).

5-Seminar. Refleksi tahlil.

O'qishning ikkinchi bosqichi – takomillashuv. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish vazifalari:

kasbiy ahamiyatga molik fazilatlarni tarbiyalash;

psixologik-pedagogik, uslubiy qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatish;

umum kasbiy madaniyatni o'stirish;

mustaqil pedagogik faoliyat tajribasini oshirish.

1 - ma'ruza. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy fazilatlarini rivojlantirish yo'llari.

2 - ma'ruza. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentlik diagnostikasi.

3 - interaktiv ma'ruza. O'qituvchining kasbiy rivojlanishi: uning shaxsiyatining deformatsiyasi va buzilishining oldini olish. Kasbiy rivojlanish yo'nalishini loyihalash.

4 - ma'ruza. Pedagogik faoliyatda monitoringning roli. Pedagogik monitoring turlari. Monitoring funksiyalari. Monitoring natijalarini ko'rib chiqish strategiyasi. Pedagogik faoliyat monitoringini rejalashtirish bo'yicha amaliy dars.

5 - Seminar. Ishbilarmonlik o'yini "O'quv faoliyatining usullari va usullari". Dars parchalarini ko'rsatish. O'yin ishtirokchilarining erkin muhokamasi. Ikkinchi bosqich natijalarini sarhisob qilish.

O'qishning uchinchi bosqichi – refleksiya. Texnologiya va ijodkorlik harakat vazifalari:

- fikrlash orqali o'z tajribasini o'zlashtirish va pedagogik vaziyatga qarab o'z faoliyatini qayta qurish qobiliyati;
- ijodiy qobiliyat va kasbiy kompetentlik rivojlantirish;
- pedagogik faoliyatning individual uslubini shakllantirish.

1-ma'ruza. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining harakat dasturini yaratish (shaxsiy kasbiy rivojlanish kundaligi).

2-ma'ruza. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi portfoliosi.

3-ma'ruza. Pedagogik vaziyatlarning konstruktiv yechimi.

4-ma'ruza. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi portfoliosi (elektron formatda).

5-seminar. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalar.



Oliy ta'lim muassasasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish, moslashuv muammolarini kamaytirish va bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatiga muvaffaqiyatli kirishiga yordam berish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning eng oson moslashuvini ta'minlash uchun uni hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

2. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali shakllaridan foydalanish, kasbiy bilimlarni egallashi uchun axborot maydonini ta'minlash.

3. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning ish faoliyatini hamkor – ustoz bilan birgalikda rejalashtirish.

4. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini korporativ madaniyatga jalb qilish (korporativ madaniyat deganda muassasada o'rnatilgan barqarorlikni, ichki jarayonlarni tashkil etish tamoyillarini, rivojlanishni ta'minlovchi strategiyalarni tushunamiz) ta'lim muassasasi an'analari atrofida birlashtirish.

Bo'lajak mutaxassislar bilan ishlash tizimi:

bo'lajak mutaxassisning ish joyiga oson moslashishi uchun sharoit yaratish; uslubiy Foydalanilgan adabiyotlar., uzoq muddatli rejalar uchun materiallar, didaktik ta'minot, hamkasabalar tajribasi bilan tanishish;

o'quvchi va ularning ota-onalari nigohida o'qituvchi obro'-e'tiborini shakllantiruvchi materiallar bilan ishlash;

kursdoshlar o'rtasida o'zaro yordam ishlarini tashkil etish.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish mexanizmi:

amaliyot joyida o'qituvchilarning malakasini rivojlantirish, murabbiylik amaliyoti, pedagogik birlashmalar ishida ishtirok etish;

o'z-o'zini tarbiyalash – ta'lim dasturini mustaqil o'rganish, o'z-o'zini rivojlantirish rejasiga muvofiq ishlash;

kompyuter va chet tili kurslarida o'qitish – sertifikatga egalik;

– bo'lajak mutaxassislar faoliyatini uslubiy ta'minlanishini tashkil etish.

Ushbu jarayon uchta subyekting o'zaro manfaatlariga ta'sir qiladi: talaba, ustozning o'zi va ta'lim muassasasi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy rivojlanish faoliyatini baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

– kompetentlik darajasini aniqlovchi attestatsiya;

– bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatini monitoring qilish;

– muntazam baholash (trimestr, semestr, yillik) asosida rag'batlantirish.



Ushbu baholash jarayonida BBTO'ning o'z vazifalariga munosabati, ko'rsatmalarning bajarilishi, individual ish rejalarining bajarilishi, ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga qo'shgan hissasi hisobga olinadi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligi kompetensiyalarning egallanishida namoyon bo'ladi. Natijada biz 8 shaxsiy kompetensiyani tanladik, ularsiz bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ishi muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin emas, deb hisoblaymiz: **predmetli, didaktik, kommunikativ, menejerlik, diagnostik, texnologik, kreativ va refleksiv** kompetensiyalari orqali ko'rib chiqamiz.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kompetensiyalarini qiyosiy tahlilda ko'rib chiqamiz(1 – jadval):

Kompetentlikni tashkil etuvchi komponentlar qiyosiy tahlili

Yevropa pedagoglari	I. A. Zimnyaya	G.R. Tojiboeva
	sog'liqni saqlash	
	qadriyat	
artisti	integratsiya	predmetli
notiqlik	fuqarolik	didaktik kommunikativ
ritorik	o'z-o'zini	menejerlik diagnostik
ekspressiv	takomillashtirish	texnologik
musiqiy	ijtimoiy hamkorlik	kreativ
texnik	muloqot qilish	refleksiv
improvizatsion	kognitiv	
sport	faoliyat	
	axborot texnologiyalari	

Kasbiy kompetentlik tashkil etuvchi har bir kompetensiyani tavsiflab chiqamiz.

Predmetli – muayyan fan bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash kompetensiyasi.

Didaktik – bilim, ko'nikma, tajriba uyg'unligiga asoslangan, o'quv jarayonining istalgan natijasini kafolatlaydigan integratsiyalashgan, dinamik kompetensiyasi.

Kommunikativ – muloqotning maqsadlari, sohalari va vaziyatlari bilan adekvat muloqot qilish qobiliyati va haqiqiy tayyorligi, og'zaki muloqotga va o'zaro tushunishga tayyorlik.

Menejerlik – kasbiy pedagogik muammolarni yuqori samaradorlik bilan hal qilish qobiliyati va tayyorgarligini belgilaydigan shaxsning integral, dinamik kompetensiyasi.



Компетенциялар матрицаси



3- рasm. Kompetensiylar matritysasi

Diagnostic – diagnostika ko‘nikma va malakalarini o‘quv jarayonida ongli ravishda qo‘llash, diagnostika va o‘z-o‘zini tashxislar usullarini o‘zlashtirish, o‘quvchilarga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish integral, dinamik kompetensiyasi.

Texnologik – axborot bilan ishlash qobiliyati (to‘plash,

qidirish, uzatish, tahlil qilish); o‘z kasbiy faoliyatini modellashtirish va loyihalash; jamoa ishini modellashtirish va loyihalash; zamonaviy AKT asosida tashkiliy muhitda navigatsiya qilish qobiliyati; kasbiy faoliyatida zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish kompetensiyasi.

Kreativ – an’anaviy yoki qabul qilingan fikrlash shakllaridan chetga chiqadigan tubdan yangi g‘ayrioddiy g‘oyalarni yaratishga tayyorlik, shuningdek, pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish integral, dinamik kompetensiyasi.

Reflektiv – kasbiy takomillashning psixologik mexanizmini o‘zlashtirishda, o‘ziga va o‘z kasbiy faoliyatiga nisbatan analitik qobiliyat va pozitsiyani namoyon qilishning integral, dinamik kompetensiyasi.

Biz ushbu kompetensiyalarni BBTO‘ Kompetentlik matritysasi ko‘rsatmoqchimiz (3 - rasm):

Ushbu matritysadagi ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali pedagogik kompetentlikning shaxsiy ko‘rsatkichlari sektorlarda 5 balli shkala bo‘yicha talabani o‘zi tomonidan baholanib boradi. Doira markazi 0 bilan belgilandi. Har bir sektorni 5ta parametr bo‘yicha belgilab borishlari kerak:

1. So‘z birikmasi sifatida tanish.
2. Kategoriya sifatida bilaman.
3. Taxminiy bajara olaman.
4. Aniq bajaraman.
5. Bilanimni boyitmoqdaman.

Biz talabalarga har bir sektorni beshta o‘zlariga tanish yoki mavjud bo‘lgan aniq mezonlar bilan belgilab olishlarini maslahat berdik. Bu yerda bir nechta maqsadlarga erishildi. Dastlabki sinovlarda ushbu vazifa orqali biz talabalarining bilim doiralarini aniqlab olgan bo‘lsak, keyingi bosqichlarda ishlash doirasini aniqlab olishlari uchun qo‘lladik.



Adabiyotlar:

1. Muhamedov G'.I. Pedagogik ta'lim klasteri: Chirchiq tajribasi. "Yangi O'zbekstonda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy anjuman materiallari., TVCHDPI-2022.7- b.
2. Tojiboyeva Gulmira Rifovna, Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari "Yangi O'zbekstonda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy anjuman materiallari., TVCHDPI-2022. 304-307 b.
3. Tojiboyeva Gulmira Rifovna, Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy kompetentligining darajalari/ Mug'allim ham uzliksiz bilimlendirio', 80-84 bet.
4. Tojiboyeva Gulmira Rifovna, The specificity of the school "Rivoge" (development) in the development of the professional competence of the future primary education teacher., International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany <https://conferencea.org> June 5th 2022.

РЕЗЮМЕ

Maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Oliy pedagogik ta'lim tizimida pedagogik ta'lim innovatsion klasteri asosida ishlab chiqilgan "Rivoj" loyihasi globallashtirish jarayonida ishlashga tayyor bo'lgan professional kadrlarni tayyorlash bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируются возможности развития профессиональной компетентности будущего учителя начальных классов. Рассмотрены вопросы, связанные с подготовкой профессиональных кадров, готовых к работе в условиях глобализации на основе проекта «Развитие», который был разработан на базе инновационного кластера педагогического образования в системе высшего педагогического образования.

SUMMARY

The article analyzes the possibilities for developing the professional competence of a future primary school teacher. Issues related to the training of professional personnel ready to work in the context of globalization on the basis of the "Development" project, which was developed on the basis of an innovative cluster of teacher education in the system of higher teacher education, are considered.

